FARG'ONA VILOYATI RISHTON TUMANI HOKIMINING
QARORI

2021 - yil 17 - dekabr 202-11-158-Q/21 Rishton tumani hokimligi

Uy va turar joyning inventar yig`ma jildidan olingan ma'lumotlar ayrim turlaridan ko`chirmalar va nusxalar berish tartibi to`g`risida

O`zbekiston Respublikasining "Davlat kadastrlari to`g`risida"gi Qonuni, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 20 yanvardagi 18-son "O`zbekiston Respublikasining uy-joy fondini davlat yo`li bilan hisobga olish to`g`risida"gi qarori, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 02-sentyabrdagi 535-son "Kadastr sohasida ayrim davlat xizmatlari ko`rsatishning ma'muriy reglamentlarini tasdiqlash to`g`risida"gi qarori, O`zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida"gi Qonunining 6, 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Uy va turar joyning inventar yig`ma jildidan olingan ma'lumotlar ayrimturlaridan ko`chirmalar va nusxalar berish tartibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Davlat kadastrlari palatasi Farg'ona viloyat boshqarmasi Rishton tuman filiali (Dadajonov Baxtiyor Qaxxoraliyevich) ushbu qaror bilan tasdiqlangan "Uy va turar joyning inventar yig`ma jildidan olingan ma'lumotlar ayrim turlaridan ko`chirmalar va nusxalar berishtartibi" asosida ishyuritilishini ta'minlasin.

3. Mazkur qaror Rishton haqiqati gazetasida rasman e'lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

4. Mazkur qaror ijrosining nazorati tuman hokimining o`rinbosari N.Oripov zimmasiga yuklatilsin

Tuman hokimi **С.Солиев**